



## Legal regulation of crowdfunding as a new method of investment in the Republic of Uzbekistan

Gavkhar KHALIKOVA<sup>1</sup>

University of World Economy and Diplomacy

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received April 2024  
Received in revised form  
15 May 2024  
Accepted 25 May 2024  
Available online  
15 June 2024

**Keywords:**

crowdfunding,  
investment activity,  
investment legislation,  
legal regulation,  
Internet platform.

### ABSTRACT

The article presents a comprehensive analysis of the legal regulation of crowdfunding activities in the Republic of Uzbekistan and other countries. Given the absence of specific norms regulating the rights and duties of subjects of crowdfunding activity in Uzbekistan, the existing legal documents that can be used to regulate these relations have been studied. The application of legal documents to similar relations is also analyzed. It was emphasized that crowdfunding activities will be regulated by law, to implement appropriate amendments to the legislation on investment activities.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss5/S-pp27-32>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## O'zbekiston respublikasida investitsiyalashning yangi usuli sifatida kraufdanding faoliyatining huquqiy tartibga solinishi

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**  
kraufdanding,  
investitsiya faoliyati,  
investitsiya qonunchiligi,  
huquqiy tartibga solish,  
internet platformasi.

Maqlada O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlarda kraufdanding faoliyatini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari atroflicha tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida kraufdanding faoliyati subyektlarini huquq va burchlarini tartibga soluvchi maxsus normalarning mavjud emasligi sababli, ushbu munosabatlarni tartibga solishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan mavjud qonun hujatlari o'rganilgan. Qonun hujjalarni o'xshash munosabatlarga nisbatan qo'llanishi tahlil qilingan. Kraufdanding faoliyatini aniq huquqiy tartibga solinishi va bu orqali investitsiya faoliyatiga doir qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilishi ta'kidlangan.

<sup>1</sup> Doctoral student, University of World Economy and Diplomacy. E-mail: gavharkholiqova@gmail.com

# Правовое регулирование краудфандинга как новый метод инвестиций в Республике Узбекистан

## АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

краудфандинг,  
инвестиционная  
деятельность,  
инвестиционное  
законодательство,  
правовое регулирование,  
интернет-платформа.

В данной статье проводится комплексный анализ правовых аспектов регулирования краудфандинговой деятельности в Республике Узбекистан и сравнительный обзор с другими странами. Особое внимание уделяется анализу существующих нормативно-правовых актов, которые могут быть применимы для регулирования краудфандинга в условиях отсутствия специализированных законов в Республике Узбекистан. Исследуется возможность адаптации действующих правовых документов для управления данным видом экономической деятельности. В статье делается вывод о необходимости внесения специфических изменений в законодательство об инвестиционной деятельности, что позволит четко и эффективно регулировать сферу краудфандинга.

Butunjahon internet tarmog'ining kundan kunga rivojlanishi va jamiyat hayotining turli sohalariga kirib borishi o'z navbatida moliyalashtirishning ham yangi turlari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Internet tarmoqlaridan foydalangan holda investitsiya jalg qilish hollari yanada kuchaydi va bu faoliyat bugungi kunda kraufdanding atamasi ostida keng tarqalib bormoqda.

Kraufdanding (inglizcha "crowdfunding" – olomon, omma tomonidan moliyalashtirish) – bir qancha shaxslar guruhi tomonidan, internet platformasi yoki maxsus kraufdanding saytlari orqali, turli xil loyiha, g'oya yoki korxonalarini moliyalashtirish uchun pul mablag'larini yig'ish usulidir. Ushbu faoliyat turiga nisbatan olimlar tomonidan turlicha ta'riflar beriladi. Masalan, E.N. Chagalovning eng yangi xorijiy so'zlar lug'atiga ko'ra, kraufdanding xayriya va siyosiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun o'z pullari yoki boshqa resurslarini, odatda internet platformasi orqali birlashtirgan odamlarning ishonchiga asoslangan jamoaviy hamkorlik. Bunday jamoaviy hamkorlikdan asosiy maqsad esa ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va boshqa sohalardagi innovatsion loyihalarni amalga oshirishda yordam berish. Ushbu ta'rifga ko'ra kraufdanding faoliyati asosan xayriya faoliyatiga o'xshash faoliyat sifatida ta'riflanadi. P. Vorobyeva esa kraufdandingga bir mucha umumiyligi ta'rif berib, ushbu faoliyatni internet texnologiyalariga asoslangan moliyalashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. Yana bir xorijlik olim V.L. Chugrayev kraufdanding faoliyatini ijtimoiy texnologiyalarga asoslangan jamoaviy moliyalashtirishning beg'araz ko'rinishi deb deb ta'kidlagan. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda kraufdanding faoliyati internet platformasi orqali nafaqat xayriya faoliyatini amalga oshirish, balki tijorat maqsadlarida moliyalashtirishning rivojlanayotgan ko'rinishidan biriga aylandi.

Kraufdandingning eng muhim afzalliklaridan biri, uning internet orqali amalga oshirishning qulay ekanligi, mablag' yig'ish jarayonlarining soddalashitirilganligi va ommaviy shaklda amalga oshirilishidir. Bunda platformga joylashtirilgan loyiha foydalanuvchilarga ma'qul bo'lsa, tez fursatda zarur mablag'ni yig'ish imkoniyati mavjuddir.

Ushbu faoliyat moliyalashitirishda keng imkoniyatlarga va yuqori samaradorlikka egadir. Biroq, mamlakatimizda ushbu huquqiy munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi huquqiy normalarning yo'qligi, ushbu faoliyat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini shunga o'xhash munosabatlarni tartibga soluvchi normalar bilan tartibga solinishini talab etadi. Ayniqsa investitsiya jalg qilishning zamonaviy ko'rinishi sifatida kraufdanding faoliyatini o'rganish, uning huquqiy tabiatini tadqiq qilish muhim masaladir. Shunday ekan kraufdandingni moliyalashtirishning yangi usuli sifatida tadqiq qilar ekanmiz, investitsiyaga doir qonun hujjatlarini hamda o'xhash munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni tahlil qilish ham zarurdir.

Kraufdandingni investitsiya qonunchiligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kraufdanding faoliyatining qaysi turlariga nisbatan investitsiyaga doir qonunchilikni qo'llash masalasini ham o'rganishni talab qiladi. Chunki kraufdanding faoliyatining barcha turlarida ham mablag' beruvchi shaxslar moddiy foyda olishni ko'zlamaydilar. So'nggi yillarda kraufdanding yordamida mablag' yig'ish quyidagi asosiy yo'naliishlarda amalga oshirilmoqda: davolash va qayta moliyalashtirish, istiqbolli tijorat loyihamonlari moliyalashtirish, obodonlashtirish, siyosiy faoliyatni rivojlantirish, xayriya, fan, adabiyot, san'at, sport va boshqa sohalarda moliyalashtirish. Quyida kraufdanding faoliyati turlariga qisqacha to'xtalib o'tish orqali, ular o'rtasida farqni ko'rishimiz mumkin.

Kraufdanding faoliyatining asosan 4 ta turi mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1-Reward based crowdfunding-mukofotga asoslangan kraufdanding. Bu eng mashhur kraufdanding modellaridan biri bo'lib, bu yerda mablag' ajratuvchi shaxslar oldindan kelishilgan mukofotlar yoki loyiha egasi tomonidan tayyorlangan mahsulotlar yoki xizmatlar evaziga loyiha xayriya qiladilar.

2-Equity-based crowdfunding-Aksiyalarga asoslangan kraufdanding. Ushbu turdag'i kraufdandingda investorlar ma'lum kompaniyadagi aksiya yoki foydadan olinadigan ulush evaziga sarmoya kiritadi. Ushbu model asosan investitsiya jalg qilish uchun startaplar va biznes loyihamonlari qo'llaniladi. Kraufdandingning ushbu turi shaxsiy va notijorat loyihamonlari uchun mos kelmaydi.

3-Donation-based crowdfunding-Xayriyaga asoslangan kraufdanding. Ushbu turdag'i kraufdandingda mablag' ajratuvchilar hech qanday moddiy manfaat ko'zlamagn holda pul mablag'larini ajratadilar.

4-Debt-based crowdfunding-Kreditlashga asoslangan kraufdanding. Ushbu modelda kreditorlar mablag'larni foiz evaziga qaytarilish sharti bilan taqdim etadilar.

Olimlar o'rtasida ham kraufdanding faoliyatini turlarga ajratishda tur xil ilmiy yondoshuvlar mavjud.

S. Petrovich Kraufdanding faoliyatini 2 turga yani, tijorat va notijorat turga bo'ladi. Unga ko'ra notijorat kraufdanding faoliyati xayriya shartnomasi tuzish orqali amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha bunday turlarga bo'lish o'ta umumiy hisoblanadi

V.A. Kuznetsov kraufdandingni quyidagi 4 ta turga bo'ladi: xayriya, shartli ravishda qaytariladigan, kraudinvesting, kraudlending kabi turlardir.

D.A. Kotenkoning fikriga ko'ra esa kraufdanding faoliyatini quyidagi 3 ta guruhga bo'lish mumkin. Bular, bepul yoki shartli ravishda bepul kraufdanding, shartli ravishda qaytariladigan kraufdanding, shuningdek, so'zsiz qaytariladigan kraufdanding.

A.O. Klinovning qarashlari ko'ra esa kraufdandingning bir biridan farq qiladigan 5 ta modeli mavjuddir. Bular xayriya modeli, shartli qaytarish modeli, oldindan egalik qilish modeli, kraudinvesting va kraudlending kabi modellardir.

Yuqorida kraufdanding modellarini qisqacha tahlil qilish orqali ko'rdikki, ushbu modellarda fuqarolik huquqi bilan tartibga solinuvchi hadya, qarz va investitsiya faoliyati bilan o'xshash jihatlar ham ko'zga tashlanadi. Agar kraufdanding investitsiyalash bilan bog'liq bo'lsa, unda bunday munosabatlarni shartnomaviy tartibga solish nuqtai nazaridan hamma narsa ancha sodda bo'ladi, chunki ular investitsiya qonunchiligi bilan ham tartibga solinadi. Bundan tashqari, investor investitsiya qonunchiligi taqdim etadigan kafolatlar, imtiyozlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar kraufdanding faoliyati davomida ko'rsatilgan g'oya yoki loyihani amalga oshirilishi natijalaridan mablag' ajratuvchilarining moddiy manfaatdorligi ko'zlansa, bunday faoliyatda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi investitsiya faoliyatiga doir belgilarining mavjudligiga e'tibor qaratilishi va shuning uchun unga doir tushunchalar hisobga olinishi mumkin. Belgilangan huquqiy munosabatlarga nisbatan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarni qo'llanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham kraufdanding uchun bir nechta internet platformalari mavjud. Ammo ushbu huquqiy munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi huquqiy normalarning yo'qligi kraufdanding ishtirokchilarining faoliyatini, ularning huquq va burchlarini analogiya bo'yicha umumiy normalar orqali tartibga solishga majbur qiladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi kraufdanding huquqiy munosabatlarini tartibga solish uchun qo'llaniladigan shartnoma konstruksiyalari va ularning ularning barcha xususiyatlarini to'liq hisobga olmagan.

Tadqiqotchi S.Z. Tojiboyevning fikriga ko'ra kraufdanding shartnomasi-tashabbuskor, mahsus platforma operatori va investor tomonidan tuziladigan bitim bo'lib, investor tashabbuskorning mulkiga va unga bo'lgan huquqiga (qismi) egalik qilish maqsadida maxsus platforma operatori hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish majburiyatini oladi, operator esa tegishli mablag' evaziga tashabbuskorning mulki va unga bo'lgan huquqni (qismi) investor nomiga o'tkazish va rasmiylashtirish majburiyatini oladi. Tadqiqotchi tomonidan fuqarolik kodeksiga yuqoridagi ta'rifni kiritish taklifi ilgari surilgan. Bu yondoshuv kraufdanding shartnomalarining faqat tijorat turlariga nisbatan qo'llanishi mumkin va kraufdanding shartnomasi uchun umumiy ta'rif bo'la olmaydi. Ammo ushbu ta'rifni invistitsiyaga asoslangan kraufdanding shartnomalari uchun qo'llash o'rinnlidir

Bepul (notijorat) kraufdanding bo'yicha huquqiy munosabatlar fuqarolik qonunchiligi normalari, xusan, hadya shartnomasini (O'zbekiston Respublikasi FK 502-moddasi), xayr-ehsonlarni (O'zbekiston Respublikasi FK 511-moddasi) aks ettiruvchi normalar bilan tartibga solinadi.

Pullik (tijorat) kraufdandingni huquqiy tartibga solish uchun fuqarolik qonunchiligi normalari qo'llaniladi, ular oldi-sotdi shartnomasini (O'zbekiston Respublikasi FK 386-moddasi) va kredit shartnomasini (O'zbekiston Respublikasi FK 744-moddasi) tartibga soluvchi normalar bilan tartibga solinishi mumkin.

Bundan tashqari tadqiqotchi S.Z.Todjiboyev tomonidan kraufdanding investitsiyalash qator munosabatlar bilan bog'liqligi tufayli uni quyidagi munosabatlarga qo'llaniladigan shartnomalar konstruksiyalari orqali amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlanadi:

1. Mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazish bilan bog'liq shartnomalar;
2. Xizmat ko'rsatish bilan bog'liq shartnomalar;

3. Innovatsion shartnomalar;
4. Investitsiya shartnomalar;
5. Kraufdanding moliyalashtirish shartnomasi tuzishdan oldingi munosabatlarga qo'llaniladigan shartnomalar.

Ushbu sohada tadqiqot olib borgan A. Tojiboyev kraufdanding shartnomasi investitsiya shartnomasi va haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining gibrid ko'rinishi sifatida baholanishi lozimligini ta'kidlagan. Zero, kraufdanding faoliyatida jarayonida yuqorida ikkala huquqiy munosabatlarda mavjud belgilar jamlanmasini ham ko'rish mumkin.

Ushbu huquqiy munosabatlarning boshqa davlatlarda huquqiy tartibga solish masalasini ko'rib chiqish esa kraufdanding faoliyatining ba'zi xususiyatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Masalan, Estoniyada kraufdanding pul mablag'larini oluvchi va investor o'rtasida tovarni berish yoki xizmatlar ko'rsatish to'g'risida tuzilgan masofadan turib tuzilgan shartnomasi yordamida amalga oshiriladi.

Fransiyaning investitsion qonunchiligiga muvofiq, kraufdanding mexanizmlari orqali moliyalashtiriladigan internet platformalari investitsiya maslahatchisi yoki moliyaviy vositachi hisoblandi. Shuningdek ular sug'urta brokerlarining davlat reestrida ro'yxatdan o'tkazilishi shart hisoblanadi.

Rossiya Federasiyasining qonunchiligiga nazar solsak, kraufdanding moliyalashtirishni tashkil etish, turli xil resurslarni jalb qilish bilan bog'liq faoliyatdir. Ushbu faoliyatning mohiyati shundan iboratki, kraufdanding, bir tomonidan investor, boshqa tomonidan investitsiyani jalb qiladigan shaxslarga, ushbu tizim asosida shartnomalar tuzish uchun internet platformasiga kirish va undan foydalanim o'zaro bitim tuzish imkoniyatini beradi.

Moliyaviy resurslarni jalb qilish usuli sifatida kraufdandingning yuqori darajada samardorligi mavjud bo'lsada, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bunga ta'rif berilmagan. Ammo qonunchilikda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning va investorlar huquqlarini himoya qilishning aniq huquqiy mexanizmi shakllantirilgan.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasidagi investitsiyalarni amalga oshirish shakllariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, hamda investitsiyalarni amalga oshirish shakli sifatida kraufdandingni qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu norma kraufdandingni investitsiyalarni amalga oshirish usuli sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu kraufdanding faoliyati ishtirokchilariga investitsiya to'g'risidagi qonun hujjatlari normalarini qo'llash, shartnomalarni tuzish va amalga oshirish tartibini belgilash imkonini beradi. Chunki bugungi kunda kraufdanding huquqiy munosabatlarini tartibga solish uchun qo'llaniladigan iqtisodiy tuzilmalar ularning barcha xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini amaldagi investitsiya to'g'risidagi qonun hujjatlariga tegishli o'zgarish kiritilgan taqdirda, kraufdanding faoliyati ishtirokchilari investorlarga taqdim etiladigan imtiyozlar va yengilliklardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, investor kraufdanding huquqiy munosabatlarida o'z huquqlarini himoya qilish uchun investitsiya qonunchiligidagi nazarda tutilgan himoya mexanizmlaridan foydalangan holda investitsiya nizolarini tartibga solish imkoniyatiga

ega bo'ldi. Ushbu o'zgarishlar esa o'z navbatida mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish va istiqbolli investitsiya loyihalarini yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019 y., 03/19/598/4221-son Maxsus adabiyotlar
3. Кузнецов В.А. Краудфандинг–актуальные вопросы регулирования // Деньги и кредит. 2017. № 1. С. 65-73
4. Котенко Д.А. Краудфандинг – инновационный инструмент инвестирования // Журнал «Закон». 2014. № 5. С. 140-145.
5. Клинов А.О. Правовое регулирование краудфандинга в России и за рубежом // Журнал «Закон». 2018. № 2. С. 90-105.
6. S.Z.Tojiboyev // Kraufdanding – innovatsiyalarni investitsiyalashning yangi usuli sifatida. -T.:JIDU. 2024
7. A.Z.Tojiboyev Startap loyihalarni kraufdanding orqali investitsiyalash // Huquq va burch ilmiy jurnali. №4. 2020. -B.31-32
8. Tojiboyev A.Z. Startaplar faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori... diss.-T. 2021.
9. <https://www.lex.uz>
10. <http://www.norma.uz>
11. <https://ilex.by/news/>
12. <https://www.eg-online.ru/>